

O'ZBEK TILI VA INGILIZ TILINING O'XSHASHLIK VA FARQLI JIHLTLARI**Xusainova Dilrabo Ibragimjanovna**

Farg'ona viloyati yuridik texnikumi yuristlar uchun ingliz tili fani o'qituvchisi

3- darajali yurist.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14003640>

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek tilining ingliz tili bilan o'xshash jihatlari, shuning bilan birga farqli jihatlari grammatik qurilishidagi o'xshashliklar va farqlar, so'zlarining bir-biriga o'xshagan va o'xshamagan taraflari qalamga olingan.

Kalit so'zlar: o'zbek tili grammatikasi, ingliz tili grammatikasi, grammatik o'xshashliklar, grammatik farqlar, o'zbekcha va inglizcha sinonimlar, o'zbek va ingliz maqollari.

SIMILAR AND DIFFERENT ASPECTS OF THE UZBEKI LANGUAGE AND THE ENGLISH LANGUAGE

Abstract. In this article, the similarities and differences of the Uzbek language with the English language, the similarities and differences in the grammatical structure, the similarities and differences of the words are written.

Key words: Uzbek grammar, English grammar, grammatical similarities, grammatical differences, Uzbek and English synonyms, Uzbek and English proverbs.

СХОДНЫЕ И РАЗНЫЕ АСПЕКТЫ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА И АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация. В данной статье описаны сходства и различия узбекского языка с английским языком, сходства и различия грамматического строя, сходства и различия слов.

Ключевые слова: Узбекская грамматика, английская грамматика, грамматические сходства, грамматические различия, узбекские и английские синонимы, узбекские и английские пословицы.

KIRISH

Barcha tillarning boshqa tillar bilan o'xshash va farqli tomonlari bo'lishi tabiiy, albatta.

Shuning bilan bir qatorda o'zbek tili va ingliz tili ortasidagi farqlar va o'xshashliklar ham bir qancha. Masalan ikkala til orasidagi fonetik farqlar, grammatik farqlar, morfologik farqlar, leksik farqlar va o'xshashliklar.

Avvalambor gramatik farqlar haqida gapirib o'tsak, o'zbek tilida gapning asosiy bo'lagi hisoblangan ega gap boshida keladi, kesim esa juda ko'p holatlarda gap oxirida keladi. Ingliz tilida esa kesim gap boshida egadan keyin keladi, undan keyin ikkinchi darajali bo'laklar.

Masalan: Men bugun maktabga bordim./ I went to school today.

Men- ega

Bugun- ikkinchi darajali bo'lak(hol)

Maktabga- ikkinchi darajali bo'lak(hol)

Bordim- kesim

I-ega

Went- kesim

To- kelishik (jo'nalish)

School- ikkinchi darajali bo'lak

Today – ikkinchi darajali bo'lak

Bundan kelib chiqadiki ingliz tili va o'zbek tilining gramatik qurilishida bir qancha farqlar bor.

Ingliz tilidagi sinonimlar va o'zbek tilidagi sinonimlar haqida ham gapirib o'tmasak bo'lmaydi.

Ingliz va o'zbek tillaridagi o'xshatishlarni tahlil qilishimiz har bir madaniyatda majoziy til asosida yotgan konseptual metaforalardagi o'xshashlik va farqlarni aniqlaydi. O'xshashlik nuqtai nazaridan biz BUSY IS A NOURAL FOCE, IMPORTANT IS BIG, GOOD IS UP metaforalarining ikkala tilda ham o'xshatishda qo'llanishini aniqladik. Bu shuni ko'rsatadiki, bu metafora universal idrok va gavdalangan tajribalarga kirishi mumkin. Biroq, biz har bir tilda ishlatiladigan manba va maqsadli domenlarda sezilarli farqlarni topdik.

Masalan, o'zbek tilidagi o'xshatishlarda mahalliy hayvonlar, o'simliklar va madaniy manbalarga oid manbalardan ko'proq foydalanilgan bo'lsa, ingliz tilidagi o'xshatishlarda asosan G'arb madaniyatiga oid manbalardan foydalanilgan.

Maqsadli domenlar ham xilma-xil bo'lib, o'zbek o'xshatishlari inglizcha o'xshatishlarga qaraganda ko'proq hissiyotlar va ijtimoiy munosabatlarga qaratilgan. Bu farqlar madaniyatga xos bilim va tajribaning metaforik fikrlash va tildan foydalanishga ta'sirini ko'rsatadi. Tilda so'zlashuvchilar uchun mavjud bo'lgan kontseptual metaforalar ular yashaydigan jismoniy va ijtimoiy muhit tomonidan shakllantiriladi. Shunday qilib, ba'zi metaforalar umuminsoniy tajribalarga asoslangan bo'lishi mumkin bo'lsa-da, boshqalari madaniy o'zaro ta'sir va tushunish natijasida rivojlanadi.

Ikki tilning nafaqat gramatik va morfologik farqlari bor, balki maqollarning ham farqlari va o'xshashliklari mavjud. Qaysi til qaysi millatning maqollarini jamlasak ham ularning o'zaro o'xshashliklar va sezilarli farqlarni ko'rishimiz mumkin.

O'xshashlik tomonlari shundan iboratki, tarbiya masalasi qaysi din, qaysi millat bo'lishidan qat'iy nazar bir biriga juda o'xshash. Tarbiya har bir oilada deyarlik birdek. Ammo dinlar o'zgachaligi, millatning erki o'zgachaligi o'zaro farqlarni keltirib chiqaradi.

Quyida bir qator ingliz va o'zbek maqollarini tahlil qilamiz:

“Early to bed and early to rise” Erta turganga xudo beradi Har ikki millatda ham erta uyg'ongan insonning kuni barakali bo'lishi haqida.

You have made bed, and you must lie on it. “Har kim ekkanini o'rar”

As a man sows, so shall he reap. “O'z pishirgan oshingni aylanib ham, o'rgilib ham o'zing ye”

Inglizcha: **“The nearer the Church, the farther from God”** maqolini o'zbek tiliga tarjima qilsak - cherkovga yaqinlashgan sari Xudodan uzoqlashar- ma'nosini beradi. Bu o'zbek tilida: **“Besh vaqt namozini tark etmas, Harom-xarishni farq etmas”** maqoli orqali ifodalanadi.

Demak har qanday tilning ham o'xshash ham farqli tomonlari mavjud. Ayniqsa xalq maqollari, iborolari ulardan chiqadigan ma'no bir- birini takrorlashi va bir- biriga juda yaqin bo'lishi ehtimoldan xoli emas.

Ingliz tili turkiy tillar oilasiga kirmasa ham uning bir qancha o'zbek tili bilan o'xshashliklari mavjud.

Ikkila til orasidagi o'xshashliklarni va farqlarni bilib olsak va uladan foydalanib tilni o'rgansak, bu tilni o'rganishga juda katta yordam beradi desak adashmagan bo'lamiz.

XULOSA

Yuqorida biz biroz gramatik tahlil, biroz esa sinonimlar tahlili, biroz maqollar tahlili bilan cheklandik. Ammo bu mavzuni davom ettirishimiz yanada chuqurroq o'raginishimiz, ayniqsa maqollar qismiga jiddiy to'xtalib o'tishimiz mumkin edi.

Diniy, madaniy, axloqiy bir biriga o'xshash, ayniqsa ingliz va o'zbek maqollarida solishtirib tahlil qilishga arzigulik maqollar soni beqiyos. Har bir xalqning folklorshunosligi hisoblanmish maqol janriga nazar tashlar ekanmiz biz bu janrning naqadar beqiyos ekaniga guvoh bo'lamiz. Xulosa qilib aytganda qaysi til, madaniyat bo'lishidan qat'iy nazar maqollar juda chuqur ma'noli boy janr hisoblanishiga amin bo'lamiz.

Faqatgina maqollar emas, iboralar ham xuddi shunday. Bir biriga o'xshash iboralar ham bir qancha. Bu mavzuda ham yozsa arzigulik ko'plab ma'lumotlar bor.

Sinonimlar va o'xshash, ma'nodosh so'zlarning ham bir- biriga o'xshagan va o'xshamagan bir qanchasi bor. Bu ikkala til bir oilaga kirmasa ham ularning juda ko'p o'xshashliklari mavjuddir.

REFERENCES

1. "O'zbek xalq maqollari" T.Mirzayev,A. Musaqllov. Toshkent(2005)
2. Khakimova, K. B. (2020). THE SUBJECT AND PLACE OF TOPONYMICS IN THE SYSTEM OF SCIENCES. Science and Education, 1(Special Issue 2).
3. Usmonova, G. (2020). Borrowings of English vocabulary and their distinctive features. Экономика и социум, 72(5), 98-100.
4. <https://journals.indexcopernicus.com/api/file/viewByFileId/1182844.pdf>
5. SH. Rahmatullaev O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi. 1978. - 6-7 b.
6. Sirojiddinov SH., Odilova G. Badiiy tarjima asoslari. –Toshkent: Mumtoz so'z, 2011. –B. 80.
7. <file:///C:/Users/acer/Downloads/Yosh+olimlar+1015.pdf>